O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
____
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
M.E. Po'latov

2024 yil "______"___________

Ro'yxatga olindi: № F-D-20-12/1
2024 yil
"_____"_________

BANK AUDITI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	**400000**	-Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	**410000**	-Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	**60410500**	-Bank ishi va audit

SAMARQAND – 2024

Scanned with CamScanner

Fan/modul kodi BANAUD106	O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 5	Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1 Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Bank auditi	90	90	180

2 **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – kelgusida respublikamizda yuqori malakali iqtisodchi –mutaxassislar bo'lib yetishadigan talabalar uchun banklarda audit o'tkazishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilim berish, ularda banklarda buxgalteriya hisobini yuritishda qo'llaniladigan hisobvaraqlar rejasini to'g'ri qo'llanilayotgani, bank balansi auditi, bank hisobotlari auditi bo'yicha ko'nikma va malakalar shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – banklarda buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlaridan kleib chiqib auditni tashkil etish, dastlabki hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirilayotganini va ularning aylanish jarayonini to'g'ri tashkil etilganligi, bankning moliyaviy hisobotlarini to'g'ri tuzulganini audit qilish bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishdan iboratdir.

3

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Bank auditga umumiy tavsif

Auditning mohiyati va rivojlanish tarixi. Auditning maqsadi va vazifalari. Auditning rivojlanish bosqichlari. Tasdiqlovchi audit. Maqsadli sistemali audit. Tavakkalchilikka asoslangan audit. O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'rni. Audit va buxgalteriya hisobining farqli jihatlari. Auditning turlari va shakllari. Moc keluvchanlik auditi. Operatsion audit. Moliyaviy hisobot auditi. Ichki audit tushunchasi, uning maqsad va vazifalari. Tashqi audit. Audit xizmatlari bozorining rivojlanish istiqbollari tahlili.

2-mavzu: Auditorlik faoliyatining me'yoriy - huquqiy asoslari.Auditorning kasb etikasi

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun va boshqa normativ - huquqiy hujjatlar sharhi. Audit standartlari haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turlari tavsifi. Auditning xalqaro standartlarining, mazmuni, ahamiyati va tarkibi. Auditorlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi. Auditorlik kasbiga qo'yiladigan malakaviy talablar. Auditor malaka sertifikatini berish, amal qilish muddatini uzaytirish, qayta rasmiylashtirish va dublikatini berish tartibi. Auditorlik faoliyatini tartibga solishda professional tashkilotlar roli. Auditorlik

etika haqida tushuncha. Auditning axloq kodeksining mazmuni va uning asosiy talablari hamda tamoyillari. Auditda vijdonlilik va ob'ektivlik. Professional kompetentlilik. Maxfiylik. Omma uchun axborotni taqdim yetish. Boshqa auditorlar bilan munosabatlar. Auditorlik tashkiloti va auditorlarning mustaqilligi. Umuminsoniy ahloq qoidalari va ma'naviy me'yorlarga rioya qilish. Auditorning xolisligi va kasbiy vakolatliligi. Auditor ish sifatini nazorat qilish tartibi. Ish sifatini nazorat qilishning dastlabki, joriy va keyingi nazorat bosqichlari.

3-mavzu: Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish. Auditorlik tekshiruvida muhimlik va risk

Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishning tamoyillari va bosqichlari. Auditorlik tekshiruviga mijozni jalb qilish va dastlabki rejalashtirish. Auditorlik shartnomasi mazmuni va uning shartlarini kelishish xususiyatlari. Auditorlik umumiy rejasi va auditorlik dasturini tuzish tartibi. Auditorlik umumiy rejasi, dasturi va auditorlik xizmatini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani rasimylashtirish va ulardan foydalanish xususiyatlari.

Auditda muhimlik. Muhimlik darajasini aniqlashda bazaviy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish tartibi. Muhimlik darajasini aniqlash tartibi va uni auditda qo'llash. Muhimlik darajasini auditda qo'llash tartibi. Auditorlik riski va uning yuzaga kelish sabablari. Auditorlik risklarning maqbul to'plami. Auditorlik risklar maqbul to'plamining elementlarini baholash. Auditorlik riskini aniqlash modeli. Auditorlik riskiga ta'sir qiluvchi omillar. Muhimlik darajasi va auditorlik riski tushunchalarining o'zaro bog'liqligi.

4-mavzu: Auditorlik tekshiruvida firibgarlikni aniqlash. Auditorlik dalillar va tahliliy amallar

Firibgarlik tushunchasi. Firibgarlik uchburchagi. Firibgarlik oqibatidagi muhim buzib ko'rsatishning riskini aniqlash va baholash. Moliyaviy hisobotdagi firibgarliklar. Firibgarlikni oldini olish va aniqlash. Firibgarlik aniqlanganida auditorning hatti-harakati. Auditor uchun kelishuvni davom ettirish imkonsizligi.

Auditorlik dalillarining mohiyati va uning ishonchliligini belgilovchi mezonlar. Ekspert ishlaridan va boshqa auditor ishi natijalaridan dalil sifatida foydalanish xususiyatlari. auditorlik tekshiruvi bosqichlarida dalillarni to'plash tartibi, xo'jalik sub'ektlari tomonidan tekshiriladigan hujjatlarni auditorlarga to'liq hajmda taqdim etilishini ta'minlash tartibi, dalillarni to'plashda moliyaviy hujjatlardagi nomuvofiqliklarni aniqlash ketma-ketligi. Tahliliy amallar mazmuni va ularni qo'llash maqsadlari. Tahliliy amallar turlari tavsifi. Auditorlik tekshiruvi bosqichlarida tahliliy amallarni bajarish tartibi. Tahliliy amallar natijalaridan foydalanish va ular samaradorligini baholash xususiyatlari. Auditorlik tanlash mazmuni va uni amalga oshirish tartibi. Auditorlik tekshiruvida firibgarlikni aniqlash amallari tavsifi

Scanned with CamScanner

5-mavzu: Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalari auditi

Naqd pulsiz hisob-kitoblar auditining mohiyati va ularni tashkil etish asoslari. To'lov topshiriqnomalari va to'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar auditi; akkreditivlar bilan hisob-kitoblar auditi; inkasso topshiriqnomasi bilan hisob-kitoblar va bank plastik kartochkalari bilan hisob-kitoblar auditi, memoreal orderlar bilan hisob-kitoblar auditi.

6-mavzu: Banklararo hisob-kitoblar auditi

Banklararo hisob-kitoblar auditining mazmuni va ularning tashkil etilishi. Banklarning vakillik hisobvaraqlari auditi. Elektron to'lov tizimi faoliyati auditi. Banklararo hisob-kitoblarning elektron to'lov tizimi orqali to'g'ri tashkil etilganligi auditi.

7-mavzu: Banklarda kassa operatsiyalari auditi

Banklarda kassa operatsiyalari auditini tashkil qilish. Kirim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi, ular auditi. Chiqim kassa operatsiyalari bo'yicha hujjatlar aylanishi va ular auditi. Kechki kassalarning faoliyati auditi. Valyuta ayirboshlash shaxobchalarida naqd pullar auditi.

8-mavzu: Banklarda kredit operatsiyalari auditi

Banklarda kredit operatsiyalari auditini tashkil etilishi. Kredit operatsiyalari bo'yicha sintetik va analitik hisobning to'g'ri yurutganligi auditi. Kredit berish va qaytarish operatsiyalari auditi.

9-mavzu: Banklarda lizing operatsiyalari auditi

Banklarda lizing operatsiyalari auditini tashkil etilishi. Lizing operatsiyalari auditi ketma ketligi. Lizing operatsiyalarini rejalashtirish.

10-mavzu: Banklarda faktoring operatsiyalari auditi

Faktoring operatsiyalari auditini tashkil etilishi. Faktoring operatsiyalari auditi ketma ketligi. Faktoring operatsiyalari rejalashtirish.

11-mavzu: Valyuta operatsiyalari auditi

O'zbekiston Respublikasi valyuta munosabatlarini tartibga solish. Valyuta operatsiyalari auditini tashkil etish tartibi. Valyutalarni sotib olish va sotish bilan bog'liq operatsiyalar auditi. Valyuta ayirboshlash shaxobchalarida naqd pul va chet el valyutasi auditi.

12-mavzu: Banklarda asosiy vositalar auditi

Bank asosiy vositalari auditini tashkil etish tartibi; bank asosiy vositalari xarakati auditi. Asosiy vositalar amortizatsiya auditi. Asosiy vositalarni kirim qilish, qayta baholash, ijaraga berish, hisobdan chiqarish va foydalanish tartibi auditi.

13-mavzu: Banklarda nomoddiy aktivlar auditi

Banklarda nomoddiy aktivlar auditini tashkil etish tartibi. Nomoddiy aktivlarni kirim qilish, qayta baholash, hisobdan chiqarish va foydalanish tartibi auditi.

14-mavzu: Banklarda moddiy zaxiralar auditi

Banklarda moddiy zaxiralar auditini tashkil etish tartibi. Moddiy zaxiralarni kirim qilish, qayta baholash, hisobdan chiqarish va foydalanish tartibi auditi.Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar auditi.

15-mavzu. Banklarda xususiy kapital auditi

Banklarda xususiy kapital auditini tashkil etish tartibi. Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda va maqsadli tushumlar auditi.

16-mavzu: Banklarda xodimlar bilan hisob-kitoblar auditi

Banklarda xodimlar bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etish tartibi. Mehnat haqiauditi ketma ketligi. Xodimlar bilan boshqa hisob kitoblar auditi.

17-mavzu: Bank daromadlari auditi

Bank daromadlari auditini tashkil etish tartibi. Bankning foizli va foizsiz daromadlari auditi. Banklarda asosiy faoliyatning boshqa daromadlari auditi. Boshqa daromadlar auditi.

18-mavzu. Bank harajatlari auditi

Banklarda xarajatlar auditini tashkil etish tartibi. Bankning foizli, foizsiz va operatsion xarajatlari auditi hamda ularni hujjatlarda aks ettirish. Bank faoliyati moliyaviy natijalari auditi.

19-mavzu. Banklarda budjet va budjetdan tashqari to'lovlar auditi

Bankning budjet va budjetdan tashqari to'lovlari auditini tashkil etish tartibi. Bankning budjet va budjetdan tashqari to'lovlari auditi. Banklarda daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i auditi. Byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha operatsiyalar auditi.

20-mavzu. Moliyaviy hisobotlar auditi

Moliyaviy hisobot auditini tashkil etish tartibi.. Buxgalteriya balansi auditi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot auditi. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot auditi. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot auditi.

21-mavzu. Auditorlik xulosasi va hisoboti

Audit natijalarining umumlashtirilishi. Auditorlik hisoboti va uni tuzish tartibi. Auditorlik xulosasi, uning turlari va tuzilishi. Audit natijalarini tadbiq etish.

III. Amaliy mashg'ulotlarlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Scanned with CamScanner

1. Bank auditga umumiy tavsif
2. Auditorlik faoliyatining me'yoriy - huquqiy asoslari.Auditorning kasb etikasi
3. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish. Auditorlik tekshiruvida muhimlik va risk
4. Auditorlik tekshiruvida firibgarlikni aniqlash. Auditorlik dalillar va tahliliy amallar
5. Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalari auditi
6. Banklararo hisob-kitoblar auditi
7. Banklarda kassa operatsiyalari auditi
8. Banklarda kredit operatsiyalari auditi
9. Banklarda lizing operatsiyalari auditi
10. Banklarda faktoring operatsiyalari auditi
11. Valyuta operatsiyalari auditi
12. Banklarda asosiy vositalar auditi
13. Banklarda nomoddiy aktivla auditi
14. Banklarda moddiy zaxiralar auditi
15. Banklarda ustav kapitali, qo'shilgan kapital va rezerv kapitali auditi
16. Banklarda taqsimlanmagan foyda va maqsadli tushumlar auditi
17. Banklarda xodimlar bilan hisob-kitoblar auditi
18. Bank daromadlari auditi
19. Bank harajatlari auditi
20. Banklarda budjet va budjetdan tashqari to'lovlar auditi
21. Moliyaviy hisobotlar auditi
22. Auditorlik xulosasi va hisoboti

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Bank auditga umumiy tavsif
2. Auditorlik faoliyatining me'yoriy - huquqiy asoslari.Auditorning kasb etikasi
3. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish. Auditorlik tekshiruvida muhimlik va risk
4. Auditorlik tekshiruvida firibgarlikni aniqlash. Auditorlik dalillar va tahliliy amallar
5. Naqd pulsiz hisob – kitob operatsiyalari auditi
6. Banklararo hisob-kitoblar auditi
7. Banklarda kassa operatsiyalari auditi
8. Banklarda kredit operatsiyalari auditi
9. Banklarda lizing operatsiyalari auditi
10. Banklarda faktoring operatsiyalari auditi
11. Valyuta operatsiyalari auditi
12. Banklarda asosiy vositalar auditi
13. Banklarda nomoddiy aktivla auditi
14. Banklarda moddiy zaxiralar auditi
15. Banklarda ustav kapitali, qo'shilgan kapital va rezerv kapitali auditi
16. Banklarda taqsimlanmagan foyda va maqsadli tushumlar auditi
17. Banklarda xodimlar bilan hisob-kitoblar auditi
18. Bank daromadlari auditi

19. Bank harajatlari auditi
20. Banklarda budjet va budjetdan tashqari to'lovlar auditi
21. Moliyaviy hisobotlar auditi
22. Auditorlik xulosasi va hisoboti

4 **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- banklarda audit o'tkazish tartiblari to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi***;
- banklarda kassa operatsiyalari auditi; banklarda chet el valyutasidagi operatsiyalar auditi; xususiy kapital auditi; qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar auditi; bank daromadlari va xarajatlari auditi; banklarda buxgalteriya xisobotlari auditini o'tkazishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- banklarda auditni tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarni qo'llash; dastlabki hujjatlarni tekshirish; bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobvaraqlarida to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish; banklarda buxgalteriya hisobotlarini tekshirish bo'yicha ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***

5 **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits-so'rov;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar namoyishi;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

6 **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testni topshirish.

7 **Asosiy adabiyotlar:**

1. Наврузова К., Аллаберганов Р. Бухгалтерский учѐт в банках: Учебник -Т.: «Иктисод-Молия», 2017 .-312 с
2. Умаров З.А., Муругова И.А., Бабаева Г.Я. Бухгалтерский учѐт в банках. Учебник - Т.: «Иктисод-Молия», 2019 . - 576 с.
3. Umarov Z.A., Ibragimov A.K., Rizaev N.K., Marpatov M.D.,– Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari / darslik – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2019 – 500 b.
4. А.А.Амонов, А.А.Ширинов, У.А.Ширинов, - Банк хисоби, тахлил ва аудит / ўкув кўлланма – С.: *"STAP-SEL" MChJ нашриёт-матбаа бўлими. 2022*
5 Fayziyev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Qo'ziyev I.N., Avlokulov A.Z. "Audit", Darslik. T. IQTISOD-MOLIYA, 2015. -420 b.

Scanned with CamScanner

	6 Urazov К.В., Ширинов У.А., Хусанов М.Х., Пўлатов Х.У. Аудит (1-қисим) Ўқув қўлланма Самарканд 2022 7 Туйчиев А., Кузиев И., Авлокулов А., Шеримбетов И., Авазов И. Внутренний удит. Учебное пособие. - Т.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 530 б. **Qo'shimcha adabiyotlar** 1.Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. - 488 б. 2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлиқ - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. -Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. - 104 б. 3. Donald Resseguie. Accounting for Banks. LexisNexis Matthew Bender 2012 4. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. Учебник. М.: Инфра–М, 2014. – 472 с. **Axborot manbaalari:** 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasining hukumat portali. 2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 3. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
8	Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2023-yil _______dagi 1-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№__)
9	**Fan/modul uchun ma'sul:** K.B.Urazov – SamISI "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi professori, i.f.d. U.A.Shirinov – SamISI "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi mudiri, PhD, dotsent.
10	**Taqrizchilar:** **M.M.Ibragimov** - SamISI "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti, i.f.n. **Z.X.Abdullaev** – Toshkent Davlat iqtisodiyot unversteti Samarqand filiali ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari PhD

Scanned with CamScanner